



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш тамойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таъбиқи.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемуров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солиқ механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivjlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**HUDUDLAR KESIMIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

**ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РАЗНЫХ РЕГИОНАХ.**

**DEVELOPMENT TRENDS OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE
ENTREPRENEURSHIP ACTIVITY ACROSS REGIONS**

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

ORCID iD: <https://orcid.org/0009-0001-0683-2938>

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining hududiy rivojlanish tendensiyalari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda asosan, 2020-2024 yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni, ular tomonidan yaratilgan ish o‘rinlari, yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi, hududlar kesimidagi farqlar va ushbu tafovutlarning asosiy sabablari o‘rganiladi. Olingan natijalar asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, hududiy rivojlanish, statistik tahlil, YaIM, iqtisodiy islohotlar, ish o‘rinlari, hududlar kesimi.

В данной статье проводится анализ тенденций регионального развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Республике Узбекистан на основе официальных статистических данных. В исследовании рассматриваются показатели за 2020-2024 годы, включая численность субъектов малого предпринимательства, количество созданных ими рабочих мест, их доля в валовом внутреннем продукте (ВВП), а также территориальные различия и их основные причины. На основе полученных результатов разработаны практические предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, региональное развитие, статистический анализ, ВВП, экономические реформы, рабочие места, региональные различия.

This article analyzes the regional development trends of small businesses and private entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan based on official statistical data. The study focuses on the period from 2020 to 2024, examining the number of small business entities, the jobs they have created, their share in gross domestic product (GDP), as well as regional disparities and their underlying causes. Based on the findings, practical proposals and recommendations are developed to ensure the sustainable development of small businesses and private entrepreneurship.

Keywords: small business, private entrepreneurship, regional development, statistical analysis, GDP, economic reforms, employment, regional disparities

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususiy sektorning huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi hamda biznes muhitining yaxshilanishi natijasida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, ushbu faoliyatning hududlar kesimida faollashuvi ijtimoiy-iqtisodiy o‘rishni ta’minlash, aholi bandligini oshirish va mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Jumladan, kichik biznes

va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o‘shishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko‘maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PF-50-son Farmoni [1] ishlab chiqilgan. Mazkur farmon asosida kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun 120 trillion so‘m miqdorida kredit ajratilishi belgilandi. Bundan tashqari, mikromoliyaviy xizmatlarni kengaytirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish, hujjatlashtirish tartiblarini soddalashtirish va davlat tomonidan xizmat ko‘rsatishlarning raqamlashtirilgan tizimlarini joriy etish choralari ko‘rildi. Aynan ushbu chora-tadbirlar hududlarda xususiy tadbirkorlik faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xususiy sektor faoliyatining hududlar bo‘yicha rivojlanish darajasini tahlil qilish, mintaqaviy tafovutlarni aniqlash va ularning sabablarini chuqur o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Zero, xususiy tadbirkorlikning barqaror o‘shishi iqtisodiy faollik, aholi bandligi va daromadlarini oshirish, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta‘minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik masalalari bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot va izlanishlar ushbu sohaning iqtisodiy o‘shishdagi o‘rni, bandlik darajasini oshirishdagi roli va hududiy taraqqiyotga qo‘shayotgan hissasini har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

Kichik biznesning iqtisodiy o‘shishga ta‘siri masalasiga klassik yondashuvlar orasida D. Birch[2] tomonidan ilgari surilgan “gazel firmalar” nazariyasi alohida e‘tiborga loyiq. U kichik va o‘rta korxonalar aynan ish o‘rinlari yaratishda eng faol sektor ekanligini asoslab bergan. Storey[3] esa o‘z tadqiqotlarida kichik biznesni rivojlantirishda hukumat siyosatining hal qiluvchi omil ekanini ta‘kidlagan.

Xalqaro miqyosda Jahon banki, OECD va UNDP tomonidan e‘lon qilingan so‘nggi hisobotlarda kichik biznesning iqtisodiy diversifikatsiya va ijtimoiy barqarorlikka qo‘shayotgan hissasi batafsil yoritilgan[4].

O‘zbekiston bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy rivojlanishdagi o‘rni muhim mavzu sifatida ko‘tarilgan. Jumladan, X. A. Mullajonov o‘z izlanishlarida kichik tadbirkorlikning iqtisodiy o‘shishdagi rolini tahlil qilib, xususiy sektorni hududlar bo‘yicha teng rivojlantirish zarurligini ko‘rsatgan[5]. N. Sh. Nurmuhamedova esa o‘z tadqiqotida O‘zbekiston viloyatlari kesimida kichik biznes subyektlarining tarkibi, ularning moliyaviy imkoniyatlari va infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasiga alohida e‘tibor qaratgan[6].

Tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining hududiy rivojlanish tendensiyalarini aniqlash maqsadida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo‘llaniladigan usullardan foydalanildi. Tahlil jarayonida kuzatish, guruhlash, taqqoslash, umumlashtirish, statistik va grafik usullar hamda sintez yondashuvlari qo‘llanildi. 2020-2024-yillardagi rasmiy statistik ma‘lumotlar asosida hududlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganilib, ularni shakllantiruvchi omillar tahlil qilindi.

Davlat rahbari matbuot xizmati xabariga ko‘ra, keyingi besh yilda kichik va o‘rta korxonalar soni ikki baravar ko‘paydi. Ularda 10,5 million kishi ishlaydi, bu esa jami mehnatga layoqatli aholining 74 foizini tashkil etadi. Iqtisodiyotning yarmidan ko‘pi, sanoat va eksportning uchdan bir qismi shu tarmoqqa to‘g‘ri keldi. Xususan, 2025-yilda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishning ustuvor vazifalari uchun quyidagi maqsadlar belgilandi: sektorning iqtisodiyotdagi ulushini 55 foizga yetkazish, 70 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat yaratish[7]. 2025-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik biznes va mikrofirmalar 358,1 mingtani tashkil etdi. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 12,1 birlikni tashkil qildi[8].

Bugungi kunda O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi hududlardagi kreditlash imkoniyatlari, tadbirkorlik infratuzilmasining rivojlanish darajasi, soliq siyosati, axborot xizmatlari hamda davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan institutsional qo‘llab-quvvatlash vositalarining ta‘sirida o‘zgarib bormoqda. Bu omillar ta‘sirida yuzaga kelayotgan hududlararo nomutanosibliklar mazkur sohani chuqur tadqiq etish zaruratini yanada oshirmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami YaIMdagi ulushi, % [2]


Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2024-yilda 2020-yilga nisbatan o‘zgarishi, %
Qoraqalpog‘iston Res.	62,3	61,4	61,8	64,6	65,8	5,6
Andijon	72,7	74,6	69,6	68,6	69,5	-4,4
Buxoro	76,6	77,1	74,1	72,5	73	-4,7
Jizzax	84,1	81	78,7	75,3	74,4	-11,5
Qashqadaryo	74,1	71,8	70	70,5	71	-4,2
Navoiy	27,8	29,2	27,9	28,1	25,1	-9,7
Namangan	76,3	76,2	74,7	74,3	73,4	3,8
Samarqand	75	74,3	70,8	72,3	72,3	-3,6
Surxondaryo	78	78,4	77,9	77,4	77,8	-0,3
Sirdaryo	73	71,2	67,8	65,9	68,2	-6,6
Toshkent vil.	52	48,2	49,4	52,2	53,9	3,7
Farg‘ona	73,3	72,4	71,6	72,2	73,1	-0,3
Xorazm	77,4	75,8	71,9	72,7	72,3	-6,6
Toshkent sh.	53,6	51,1	51,2	51,7	52,4	-2,2

Yuqorida tahlil qilingan 1-jadval ma’lumotlariga qaraydigan bo‘lsak, 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi sezilarli darajada o‘zgarishi kuzatildi. Ushbu davr mobaynida ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich keskin pasaygan bo‘lsa, boshqa viloyatlarda esa o‘sish kuzatilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, 2024-yil holatida 2020-yilga nisbatan faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi (5,6%), Namangan viloyati (3,8%) va Toshkent viloyati (3,7%)da kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi o‘sishi kuzatilgan. Boshqa barcha hududlarda bu ko‘rsatkich pasaygan bo‘lib, eng katta salbiy o‘zgarish Jizzax viloyatida (-11,5%), undan keyin Navoiyda (-9,7%) viloyatida qayd etilgan. Surxondaryo va Farg‘ona viloyatlarida bu ko‘rsatkich deyarli o‘zgarishsiz qolgan (-0,3%).

2020-2024 yillar dinamikasiga ko‘ra, 2020-yilda ko‘plab hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi ulushi yuqori bo‘lgan. Jumladan, Jizzax (84,1%), Surxondaryo (78%), Xorazm (77,4%), Buxoro (76,6%) va Andijon (72,7%) viloyatlari yetakchi o‘rinlarni egallagan. Lekin, Navoiy (27,8%), Toshkent viloyati (52%) va Toshkent shahri (53,6%)da ko‘rsatkichlar ancha past bo‘lib, bu hududlar iqtisodiyotida yirik sanoat korxonalarining ustunligi bilan izohlanadi. 2021-yilda ayrim hududlarda kichik biznesning YaIMdagi ulushi biroz oshgan bo‘lsa-da, bu ijobiy tendensiya barqaror saqlanmagan. 2022-2023 yillarda esa ko‘plab viloyatlarda pasayish kuzatildi. Xususan, Jizzax viloyatida bu ko‘rsatkich 2020-yildagi 84,1 foizdan 2023-yilda 75,3 foizga, 2024-yilda esa 74,4 foizga tushgan. Xuddi shunday salbiy dinamika Buxoro, Andijon, Qashqadaryo, Xorazm, Samarqand, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahrida ham kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni hududning iqtisodiy faolligi, daromad manbalari va mehnat bozoridagi holatini aks ettiradi. Bandlik darajasining yuqoriligi ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘lamining kengligini, hamda YaIMdagi ulushning salmoqliligini ko‘rsatadi. Kredit resurslari, logistika, axborot xizmatlari kabi infratuzilmalar bandlik ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir qiladi. Hududlar o‘rtasidagi farqlar esa iqtisodiy imkoniyatlar, davlat qo‘llab-quvvatlovi va aholining faolligi bilan bog‘liq. Kichik biznesda bandlikning ortishi ishsizlikni kamaytiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.



1-rasm. 2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lganlar soni, ming kishi [3]

2023-yilda O‘zbekiston hududlari kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarida band bo‘lgan aholining sonida sezilarli hududiy tafovutlar kuzatildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, eng yuqori bandlik darajasi Farg‘ona 1 230,1 ming kishi, Samarqand 1 219,5 ming kishi va Andijon viloyatlarida 1 071,9 ming kishini tashkil etib, bu hududlar iqtisodiy faolligi, aholi zichligi hamda tadbirkorlik infratuzilmasining nisbatan rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, Qashqadaryo (952,4 ming), Namangan (913,8 ming) va Toshkent (872 ming) viloyatlarida ham bandlik darajasining yuqoriligi kuzatilmoqda. Bu viloyatlarda kichik tadbirkorlik faoliyatining keng miqyosda rivojlanayotgani va aholi bandligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynayotgani namoyon bo‘lmoqda. Aksincha, Navoiy 222,2 ming, Sirdaryo 243 ming va Jizzax viloyatlarida 427,1 ming kishi bilan eng past bandlik ko‘rsatkichlari qayd etilgan. Bu holat mazkur hududlarda sanoatga yo‘naltirilgan iqtisodiy tuzilma, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma va moliyaviy resurslarning cheklanganligi bilan izohlanadi.

O‘rtacha bandlik darajasi esa Qoraqalpog‘iston Respublikasida -547,6 ming, Buxoro viloyatida 598,4 ming, Xorazmda 609,8 ming va Toshkent shahrida 689,4 ming kishini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar mazkur hududlarda kichik tadbirkorlikning barqaror rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

2-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, mlrd so‘m [4]

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024
O‘zbekiston Res.	114052,7	147061,6	181245	369378,4	466461,8
Qoraqalpog‘iston Res.	3402,9	4418,3	5291,9	16389,5	21202,2
Andijon	7732	9658,4	11756	25304,3	31591,9
Buxoro	6571,8	8287,1	9785,4	19285,6	23993,9
Jizzax	3095,8	3980,1	4829,4	11911,5	14888,5
Qashqadaryo	7308	8999,2	10831,6	26417,8	32958,6
Navoiy	3438,9	4382,7	5431,7	9333,9	11688,4
Namangan	5925	7882,8	9742,4	25783,8	32595,9
Samarqand	9703	12607,9	15511,7	30906,6	38853,7
Surxondaryo	5331,3	6938,4	8279,3	17200,6	21604,3
Sirdaryo	1842,4	2227,9	2621,2	6154,5	7772,5
Toshkent	11721,6	15117,3	17944,7	33254,9	41479
Farg‘ona	9758,6	12186,4	14564,9	33587,8	41981,9
Xorazm	4127,2	5390,3	6500,1	16268,6	20698,3
Toshkent sh.	34094,2	44984,8	58154,7	97579	125152,7

Yuqoridagi 2-jadval ma’lumotlariga qaraydigan bo’lsak, 2020-2024 yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida izchil o‘shish tendensiyasi kuzatildi. 2020-yilda respublika bo‘yicha ushbu ko‘rsatkich 114 052,7 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 466 461,8 mlrd so‘mga yetdi. Bu esa to‘rt yil davomida 4,1 barobar o‘shishni, o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati qariyb 44,9 foizni tashkil etmoqda.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, eng ko‘p xizmatlar hajmi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelib, mablag‘ hajmi 125 152,7 mlrd so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, Farg‘ona (41 981,9 mlrd so‘m) va Toshkent viloyatlari (41 479 mlrd so‘m) ham yetakchi o‘rinlarda turibdi. Bu holat mazkur hududlarda aholi zichligi yuqoriligi, iqtisodiy faollik va tadbirkorlik subyektlarining ko‘pligi bilan bevosita bog‘liqdir. Boshqa tomondan, eng past ko‘rsatkichlar Sirdaryo (7 772,5 mlrd so‘m), Navoiy (11 688,4 mlrd so‘m) va Jizzax (14 888,5 mlrd so‘m) viloyatlarida qayd etildi. Ushbu hududlarda iqtisodiy ehtiyojlar va infratuzilma salohiyatining nisbatan pastligi, shuningdek, kichik biznes faoliyatining cheklanganligi kuzatilmoqda.

Yillik o‘shish sur‘atlariga nazar tashlasak, 2023-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan davrda deyarli barcha hududlarda o‘shish 24-29 foiz atrofida bo‘lgan. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida mablag‘lar hajmi 29,4 foizga, Toshkent shahrida 28,3 foizga, Namangan viloyatida esa 26,4 foizga oshgan. Ushbu ko‘rsatkichlar davlat tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samarasini yaqqol aks ettiradi. Mablag‘larning bosqichma-bosqich ko‘payib borayotgani kichik biznesni rivojlantirish, mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuvi va aholi ehtiyojlarini qamrab olish darajasining ortib borayotganiga dalil bo‘la oladi. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hududiy rivojlanishi iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, ayrim hududlarda tadbirkorlik infratuzilmasining zaifligi, moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi va institutsional qo‘llab-quvvatlov darajasining pastligi hududlararo nomutanosibliklarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun iqtisodiy jihatdan sust hududlarda kichik biznes subyektlari uchun maqsadli qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, jumladan, kredit va grant dasturlarini kengaytirish, soliq yengilliklarini taklif etish va zarur infratuzilmani shakllantirish lozim. Shuningdek, mahalliy darajada innovatsion biznes loyihalarni tanlab moliyalashtirish tizimini yo‘lga qo‘yish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali, hududlararo iqtisodiy tafovutlar kamayishi, tadbirkorlik faolligi ortishi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”dagi PF-50-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-7444738>
2. Birch, D. L. (1979). “The Job Generation Process”. MIT Program on Neighborhood and Regional Change.
3. Storey, D. J. (1994). “Understanding the Small Business Sector”. Routledge.
4. World Bank. (2022). Doing Business 2022: Comparing Business Regulation in 190 Economies. / UNDP. (2022). Private Sector Development in Uzbekistan: Policy and Institutional Frameworks.
5. Mullajonov X. A. “Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesning o‘rni”, “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2019, №3.
6. Nurmuhamedova N. Sh. “Kichik biznes faoliyatining hududlar kesimidagi tahliliy”, TDIU, 2021-yil.
7. <https://president.uz/oz/lists/view/7955>
8. Akbarova Barno Shuxratovna. (2025). “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini hududiy taqsimotini statistik tadqiqi”. Muhandislik va Iqtisodiyot, 3(1), 8-13. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14875075>
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi. <https://stat.uz>